

Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi
Mijozlar kengashi (Customer Council) majlisining
BAYONI
24-132-son

2026-yil 12-avgust

Toshkent sh.

Kun tartibi: "Byurokratiyani bartaraf etish — 2030" dasturi doirasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish va maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish boʻyicha takliflarni koʻrib chiqish.

Majlisda fuqarolarning fikr-mulohazalari asosida eng koʻp muammo keltirib chiqarayotgan xizmatlar muhokama qilindi va quyidagi xizmatlarni soddalashtirish hamda raqamlashtirish boʻyicha kelishuvga erishildi:

1. Ijtimoiy reyestrning "davlat taʼminotidagi oila" toifasiga quyosh paneli subsidiyasi — dalolatnoma "Onlayn mahalla" platformasida onlayn shakllantiriladi, bank rekvizitlari avtomatik olinib, qoʻlda kiritish va qogʻoz hujjat aylanishi bekor qilinadi.

2. Ipak qurti jihozini xarid qilish uchun kasanachiga ssuda — fuqaro onlayn ariza topshiradi, ariza avtomatik koʻrib chiqiladi, dalolatnoma onlayn shakllantiriladi va toʻlov amalga oshiriladi.

3. Pilla yetishtiruvchilarga subsidiya — ariza "Onlayn mahalla" orqali qabul qilinadi, rekvizitlar avtomatik olinib, qogʻoz hujjat va qoʻlda baholash bekor qilinadi.

4. Ishsiz va ish qidiruvchilarga vaucher — xizmat mahalla darajasiga oʻtkaziladi: fuqaro hokim yordamchisiga murojaat qiladi, vaucher "Onlayn mahalla" orqali beriladi, tuman (shahar) bandlik boʻlimiga borish zarurati bekor boʻladi.

Maʼqullangan takliflar "Zero Bureaucracy" raqamli platformasiga kiritilib, vazirlikning byurokratiyani bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlar rejasida ijrosi taʼminlanadi.